”O‘TKAN KUNLAR” ASARI HAQIDA

Raxmatullayeva Rozagul Abdulaziz qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
149-21 Elektronika vaAsbobsozlik(EA)

Annotatsiya: “O‘tgan kunlar” romanidagi obrazlarning har biri o‘zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asari - o‘zbek romanchiligining birinchi cho‘qqisidir. Bu asarni o‘qish insonni ruhiy oziqlantiradi.
Kalit so‘zlar: Roman, ziyoli, adib, tarix, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, millat.

Abdulla Qodiriy o‘z zamonasining ilg‘or bir ziyolisi, orginal adib sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg‘urdi. Zamon to’z to’palonlari adib qalbini iztirobga soldi va qayg’uli o ‘zbek millatining urf-odat andishalarini birin-ketin o‘z asarlarida aks ettira boshladi. Shunday romanlardan biri adibning “O‘tkan kunlar” romani. Roman orqali adib xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga yo‘liqtirgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ldi. Bu unga juda ko‘p kulfatlar keltirishi mumkinligini bilsada, u xalqning qadr qimmatini anglatish uchun har tarafdan tinmay tirishar harakatda bo‘lar edi. Romanning ma’no- mazmuni mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan.Har bir obraz kamchiliklarsiz yoritib berilgan. Mana shu sababdan uni necha marta o‘qisangiz qahramonlar haqida turli xil fikrga kelaverasiz. Ammo adib asarda yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar sanaladi. AYrimlar esa bu vaziyatdan foydalanish uchun jon-jahdi ila harakat qiladi ammo munofiqlar niyatiga yeta olmadilar. “O‘tkan kunlar” romani bamisoli millatimizning ulkan va tiniq ko‘zgusi, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlangan bo’lib asarni o‘qish davomida siz millatimizning me’rosini ham o‘rganishungiz mumkin. Romandagi uchlik - oshiq, ma’shuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Vaholanki roman dostonlardan farqli. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan ko‘rsatilgan bo‘lib Zaynab obrazi ham uning his-tuyg‘ulari, qiyinchiliklari, dardlari adib qalamida mohirona yozilgan. Asardagi qahramonlar timsoli aniq, ravshan. Har bir obraz o‘zining ahamiyatliligi bilan xotirangizda muxrlanib qoladi. Asardagi insonlarning xarakterini o‘rgangach o‘zingizda nafrat, og‘riq hislarini his qilasiz. Ayrim qahramonlar esa qalbdan chuqur joy oladi. Asarda adib bir “durri bebaho” - ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Kumushning qismatiga esda ko‘pchilik sabab bo‘lganini asarni bir necha bor o‘qib chiqqaningizda amin bo‘lasiz. Balki Otabek va Kumushning hayotlariga qarshilar bo‘lmaganida Kumush o‘lmas, zaynab esa aqldan ozmasmidi deb o‘ylab qolasiz. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni - Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi.Qanday mohirlik bilan yozilgan bu holatlar, tarixiy davrlar. Romanda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi. Inson zoti shunday yaralgan yengillik zamonlar kelishi bilan boshiga tushishi mumkin kulfatlarni o‘ylamay qoladi. Mana shu

sabab ham millatimiz amchayin qiyinchiliklarga mustamlaka davrlariga mubtalo bo‘lmagan ekanmi. Romanda aks etgan qo ‘zg‘olanlar ham mana shu e’tiborsizlikni oqibatlari bo‘ls ane ajab. “O‘tgan kunlar” romanida mehnatkash xalqqa chuqur xurmat ruhi bilan sug‘orilgan. Yozuvchi Hasanali, usta Olim, Saodat, To‘ybeka, Oybodoq singari mehnatkash xalq vakillari obrazlarini mehr bilan tasvirlagan. Jumladan, Yusufbek hojining xizmatkori Hasanali uddaburron, tadbirli, sadoqatli, aqlli, g‘amxo‘r, vijdoni pok, mehribon - umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo‘ladi.Hasanalini tom ma’noda Otabekning tutungan otasi sifatida ko‘rishimiz mumkn. U Otabekning baxti iqboli uchun rosa harakat qilgan insondir. «O‘tgan kunlar» romanida xotin-qizlar obrazi salmoqli o‘rin egallaydi. Kasal holida ham o‘rnidan turishga intilgan Kumush qiyofasida tasvirlangan. Asarda o‘zbek qizlarining uyat andishasi, ularning kiyinish odoblarini, Kumushbibi, Zaynab, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Saodat, Oybodoq, To‘ybeka, Xushro‘ybibi, Jannat kampir kabi o‘nlab xilma-xil obrazlarda ko‘rishingiz mumkin.Bundan tashqari adib yaratgan. Muallif Homid, Xushro‘ybibi, Jannat kampir, Musulmonqul, Azizbek, Sodiq kabi murakkab obrazlarni ham zo‘r mahorat bilan tasvirlangan. Asarda, Kumushbibi vafodorlik, go‘zallik va samimiylikning ramzi bo‘lsada, Zaynab ham undan qolishmagan. Xushro‘ybibi ichi qoralik va shumlik, battollik va yomonlik, behayolik va urshqoqlik, o‘jarlik va xudbinlik timsolidir. Asarni qayta o‘qigamingizda bu obraz haqida ham boshqa fikrlarga kela boshlaysiz. Asar tom ma’noda keng ko‘lamli yozilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda ham adibning bu asarining o‘quvchilari ko‘p va adib ijodini chuqurroq o‘rganish uchun romanni qayta-qayta taxlil qilishadi. Roman hayotiy voqealardan iborat, hayot qanchalik shavqatsiz bo‘lsa roman ham mana shu shavqatsizliklarni chetlab o‘tmagan tarzda yozilgan. Romanni o‘qib chiqqan har bir inson unda millatimiz me’rosini ko‘radi mana shuning uchun ham balki asarning umri uzundir. Yuqoridagi fikrlarimizdan ko‘rinib turibdiki, Abdulla Qodiriy ijodida milliylik ikki yo‘nalishda o‘z ifodasini topadi. Birinchidan, adib barcha asarlari, xususan, “O‘tkan kunlar” romani badiiy niyatiga mavzuni o‘z ona yurti, ona xalqi tarixi, mentalitetidan kelib chiqib ifodalash orqali erishadi. Ikkinchidan, mavzu, g‘oya, obraz yechimi islom ma’rifati hamda jadidchilik ta’limotiga yo‘g‘rilgan va bu esa milliylikni yanada chuqurlashtirgan.

Adabiyotlar:

1.https://yandex.ru/search/?clid=2255395225&win=543&from=chromesearch&text=abdulla+qodiriy+maqolalar&lr=10335
2. А.Қаҳҳор. Асарлар. Т ВИ. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 411 – бет.
3. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/ulugbek-dolimov-abdulla-qodiriy-1894-1938/?lng=lat
4. https://oz.sputniknews.uz/20190410/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-22340395.html
5. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. Мировая наука, 5(14), 26-28.